

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1078333>

IQTIDORLI BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMDA IJTIMOIYLASHUVI

Mahmudova Dilorom Axmadovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasи prof. v.b PhD

Dilshodova Madinabonu Rustam qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Pedagogika va
psixologiya fakulteti Psixologiya kafedrasи 2 - kurs magistranti

umnummaryam3622@gmail.com

ANNOTATSIYA

Yurtimizda imkoniyati cheklangan bolalarni inkluziv ta'limga jalg qilish, 2021 - yildan buyon davom etib kelyapti, bu jarayon ko'zga ko'ringan muammolardan biri bu bolalarning o'zaro ijtimoiylashuv jarayonlaridagi muammolardir. Ushbu mqlada, bolalarning nafaqat nogironligi bo'lgan bolalaning, balki sog'lom bolalarning ham ijtimoiylashuv jarayonlari haqida ma'lumot beriladi. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida, inkluziv ta'limni amaliyatga tadbiq qilish uchun qilingan chora tadbirlar hamda, chet davlatlarining ijlg'or tajribalarini bizning mintaletimizga moslashtirgan holda tadbiq qilish, va albata inkluziv ta'limning bolalar, jamiyat va davlatimiz uchun ahamiyatti haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inkluziv, integratsion, imkoniyati cheklangan, UNESCO, USAID, Salamanca bayonomasi.

ABSTRACT

Involvement of children with disabilities in inclusive education in our country has been ongoing since 2021, one of the visible problems of this process is the problems in the socialization processes of children. This article provides information about the socialization processes of not only children with health problems, but also healthy children. In school and pre-school educational institutions, the measures taken to implement inclusive education and the implementation of the best practices of foreign countries in accordance with our culture, and of course the importance of inclusive education for children, society and our country.

Key words: inclusive, integrative, disabled, UNESCO, USAID, Salamanca Statement

KIRISH

**“Birga o‘qishni o‘rgangan o‘quvchi,
Ertaga birga yashashni biladi.”**

UNESCO

Hozirgi kunda nafaqat mamlakatimizda balkim butun dunyoda ilm- fan taraqiy topib eng yuksak cho‘qilarni zabit etib kelmoqda. Bunga misol qilib o‘n yil avvalgi dunyo bilan hozirgi kundagi dunyo o‘rtasidagi farqlarni taqoslashing o‘zi kifoya deb o‘ylayman. Fan, texnika, ilm keng miqiyosda rivojlanib borar ekan, bu rivojlanishda hech kimning ortda qolishga haqqi yo‘q. Orta qolish demak, qoloqlik demak, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaslik demakdir. Ho‘s sh bugun biz ortda qolmaslik uchun tinimsiz harakat qilayotgan zamonda, ortda qolayotgan jamiyatdan uzilib qolayotgan qatlama uchun nimalar qilyapmiz. Ular haqida o‘ylayapmizmi?

Albatta dunyo siyostida sanoqli insonlarga bu haqida fikir qilmoqdalar, Alloha shukurki bunday insonlar bizning yurtimizda ham talaygina. Prezidentimiz farmoni bilan 2020 - 2021 yillar oralig‘ida aynan inkluziv ta’lim bo‘yicha, uni tartibga solish, ta’lim sohasiga tatbiq qilish bo‘yicha farmoyish tayyorlandi va tasdiqlandi.

Inkluziv ta’lim, yaqin yillarda qulog‘imiz bu so‘zni eshitishga ancha o‘rganib qoldi. Barcha maktab va maktabgacha ta’lim sohalarda bunday ta’limni keng tatqib qilinmoqda. Bilamizki inkluziv atamasi fanga kiritilishidan avval, integratsion ta’lim shakli sinov tariqasida jahon mamlakatlarida qo‘lanilingan edi. Afsuski integratsion ta’lim orqali, kutilingan natijalarga erisha olinmadi, va uning ya’nada mukammalashtirilgan shakli inkluziv ta’lim shakli hozirgi kungacha eng samarali ta’lim shakillaridan biri bo‘lib kelmoqda. Avvalo inkluziv va integratsion ta’limning farqlarini yaxshi tushunib yetishimiz kerak bo‘ladi. Inkluziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olishlari uchun, sinflarda kerakli sharoit, xizmat, va imkoniyatlar yetarlicha bo‘ladi, hamda bola markazda shioriga muvofiq ta’lim shakli olib boriladi. Integratsion ta’limda esa, imkoniyati cheklangan bolalar, faqatgina jismonan birga bir sinfda bo‘lishadi, ular ta’lim olish jarayonlarida qatnasha olishmaydi, ularning ta’lim olishlari bilan maxsus pedagogika sohasi vakillari shug‘ullanib kelishadi.

Inkluziv ta’lim deganda 2 yondashuvni tushunishimiz mukin.

1. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berish. Ta’lim jarayonida qo‘llaniliadigan materiallar turli ehtiyojlarga javob bera oladigan, ko‘rish yoki eshitishda buzulishlarga ega bolalar, va shu kabi qiyinchilikllarga ega bo‘lgan, bolalarni inobatga olgan holda, ta’lim maskani va ta’lim materiallari, kognitiv, hissiy, va jismoniy qobiliyatlarga ega bo‘lgan bolalarga munosibligi ta’milanadi.

2. Ta’lim jarayonida foydalaniladigan barcha materiallar (darslik, slaydlar, va hokazo) ning o‘zida illustrasiyalar, qahramonlar, matn, va jins, irq va shaxsiyatning boshqa jihatlarga sezgir bo‘lgan inkluziv tildan foydalaniladi.

METODOLOGIYASI

2020- yil 23-sentyabr “Ta’lim to‘grisidagi qonun”ning yangilangan tahriri. 20 - moddasi. Yurtimizda inkluziv ta’limga ahamaiytning tobora ortib borilayotganing yaqol namunasi, sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda USAIDning 25 mln dollarlik “barcha bolalar muvaffaqiyatli” loyhasini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. AQSHning Xalqaro taraqiyot agentligi tomonidan 20 - fevral kuni taqdimot marosimi bo‘lib o‘tib, unda bu loyhaning foydalari, maqsad va vazifalari haqida keng miqiyosda ma’lumotlar berildi. USAIDning O‘zbekistondagi missiyasi direktori Devid Xofman o‘z nutqida O‘zbekistondagi har bir bolalning muvaffaqiyatini ta’minlashda hamkorlik va fidoyilikni ta’minlash muhim ekanligini ta’kidladi. Ijtimoiy himoya milli agentligi direktori Mansurbek Olloyorovning fikri aynan bizning mavzuyimizning ahamiyati kasb etdi. Uning ta’kidlashicha, o‘quvchilarni jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli a’zosiga aylantirish, inkluzivt ta’limning eng muhim bosqichi hisoblanadi.

Bu loyhaning yurtimizda joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad, sifatlari inkluziv ta’limni joriy qilish va O‘zbekistondagi barcha bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida hamkorlikda ish olib borish, majburiy ta’lim tizimini yanada inkluziv bo‘lishiga asos solish, va o‘quvchilarning, jumladan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning tayancha ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat.

5 yilga mo‘ljallangan ushbu loyha inkluziv ta’lim bilan bog‘liq 3 ta muhim yo‘nalishni qo‘llab- quvvatlashni taklif qilgan:

- inkluziv ta’lim uchun qulay o‘quv- metodik materiallar
- o‘qituvchilar uchun amaliyat va maktab muxitini yaratish
- asosiy manfaatdor tomonlar, ya’ni o‘qituvchi va imkoniyati cheklanga shaxslar bilan birgalikda ishlab chiqilingan barqaror siyosatni rivojlantirish.

Inkluziv ta’lim qilingan yillarda, 2023- 2025 yillar mobaynida 51% maktabni inkluziv ta’lim jarayonida tayyorlashni maqsad qiilib olingan edi. Ko‘rib turganizdek yuqorida loyha bu maqsad sari bosilgan ilg‘or qadam deyish mumkin. Hozirgi kunda o‘quv - metodik materiallarning inkluziv ta’lim uchun moslashtiirib yangilaninishi yanada yaxshi natijalarni qayd etishimizga yo‘l ochib beradi.

Xalq ta’lim vazirligining buyrug‘i bilan, Respublika iste’dod markazi negizda 1999 - yildan buyon faoliyat yuritayotgan, “O‘zbekiston Respublikasi tashxis markazi”da hozirgi kunda inkluziv ta’lim bo‘limi ochilib, aynan inkluziv ta’lim qanday

tuzilishi kerak, qanday o‘quvchilar, inkuluziv ta’limga tavsiya etilinishi, va albatta o‘qituvchilar qanday tayyorlanishga, dars jarayonlarini olib borish uchun metodik qo‘llanmalar yaratish kabi masalalar bilan shug‘ulanib kelinmoqda. Shundan ham ko‘rishimiz mumkinki yurtimizda inkluziv ta’limga katta e’tibor berib, bolaga qaratilingan ta’limni butun respublika bo‘ylab keng targ‘ib qilish uchun tinimsiz harakat qilinmoqda.

Respublika tashxis markazining inkluziv ta’lim bo‘limi quyidagi vazifalarni bajarib kelmoqda;

- Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlanishi va yanada yuksaltirish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni va logopediya shoxobchalarini tashkil etish va muvofiqlashtirish.
- Maktabgacha va maktablarda inklyuziv ta’lim, defektologik xizmatni takomillashtirish, o‘qituvchi-logopedlar, maxsus pedagoglarni metodik qo‘llab-quvvatlash va professional rivojlantirishga ko‘maklashish:
- Umumta’lim muassasalarida inklyuziv o‘quv muhitini yaratish maqsadida bolalar va ularning ota-onalari, o‘qituvchilarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatishda zamonaviy yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish;
- Inklyuziv ta’limni yanada rivojlanishini nazarda tutadigan davlat dasturlari va boshqa dasturlar, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlari bo‘yicha rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritish;
- Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim uchun shart-sharoitlar yaratishni nazorat qilish, inklyuziv ta’lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;

- Inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalari, ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini yaratish va uni doimiy yangilab borish;

- Inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar, umumta’lim muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalarining o‘qituvchi-logopedlar uchun psixologik-pedagogik

qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

- Inklyuziv ta’lim va umumta’lim muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalarini metodik ta’minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislarga metodik tavsiyalar va boshqalarni) ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish;

- Umumta’lim muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalari, inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ilg‘or milliy va xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga mos ravishda ishlab chiqish, takomillashtirish, tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda amaliyotga joriy etish;

- Inklyuziv ta’lim ishtirokchilari va umumta’lim muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalarining o‘qituvchi-logopedlar faoliyatini rivojlantirish maqsadida konferensiya, o‘quv-seminarlarni tashkil etish va o‘tkazish;

- Inklyuziv ta’lim ishtirokchilari va umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari qoshida tashkil etilgan logopediya shoxobchalarining o‘qituvchi-logopedlarini faoliyatini muvofiqlashtirish, monitoringini olib borish va metodik rahbarlikni amalga oshirish.

1994 - yil iyun oyida Ispaniyaning Salamandra shahrida YUNESKO tomonidan Salamandra deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda barcha bolalarning ta’lim olishga haqli ekanligini, o‘quvchilarining shaxsiy xususiyatlari (aqliy, sostsila, diqqat, jismoniya, o‘rganish darajasi)ni inobatga olgan holda ta’lim berilishi kerakligiga diqqatni qaratishdi. Bu deklaratsiyada ilk matrotaba “Education for All - EFA” (ta’lim barcha uchun) yondashuvi yuzaga chiqmish, va har bir bolalaning sifatli bir shakilda, umumiyl ta’limni olishi kerakligi, har bir bolalaning o‘ziga xos xususiyatlari bor ekanligi hamda bu xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim tizimini tashkillashtirish kerakligi, inkluziv ta’limni targ‘ib qilish maqsadida dunyo mamlakatlari bilan siyosiy ishlar olib borish kerakligi, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga mos o‘quv binolalarini tuzilishi kerakligi, qayd etilindi. (Salamandr dekloratsiyasi 1994). UNESCO tomonidan kun tartibiga aylantirilgan “Ta’lim barcha uchun” (EFA) yondashuvi, ta’limning asosiy tamoyili deb hisoblaydiga 3 ta asosga tayanadi; (UNESCO 2009)

1. T’alim asoslari, inkluziv maktablar, individual xilma-xillikni o‘z ichiga olgan o‘qitish usullarini rivojlantirish barcha o‘quvchilar manfaati uchundir. An’anaviy o‘qitish jarayonlarining o‘rniga, o‘quvchining o‘quv jarayonidagi faoliyati va individual ehtiyojlaridan kelib chiqan holda, differentisial ta’lim shaklida barcha o‘quvchilarining o‘rganish jarayonlarida ishtirok etish orqali foyda ko‘rish mumkindir.

2. Ijtimoiy asos shundaki, inkluziv ta’lim turiga ko‘ra shakillangan ta’lim muassasalari, o‘quvchilar o‘rtasidagi foydali bir o‘zgarishga sabab bo‘lib, yanada odil, va inkluziv jamiyat uchun asos bo‘lishidir.

3. Iqtisodiy asosi shundaki, barcha o‘quvchilarni birgalikda ta’lim olgan mакtablarning, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun qurilgan maxsus mакtabardan ham ta’lim tizimidan ko‘ra kamroq mablag‘ga sabab bo‘ladi.

NATIJALAR

2022 - yil 13 - sentyabrda Fern Dinsdale tomonidan Unicef manbalariga asoslanib “Satchel Pulse” saytida tayyorlagan maqolasiga ko‘ra; inkluziv ta’limni uch turga bo‘lib chiqan.

1. To‘liq inkluziya

To‘liq inkluziyada barcha o‘quvchilar teng deb hisoblanadi, ya’ni nogironligi bo‘lgan bola hamda sog‘lom bola bitta sinfda teng huquqlar asosida ta’lim oladi.

Bunday vaziyatda o‘z -o‘zidan pedagog hodimlarning vazifalari qiyinlashadi. Bu qiyinchilikdan imkon qadar yengil o‘tish uchun, aynan shu sohada tajribasi bor hodimlardan foydalangan afzal. O‘quv rejasini tayyorlash va tadbiq qilish uchun ham ma’sul hodimalar va tajribali defektolog - pedagoglar ko‘magidan foydalaniladi. Bu jarayonda o‘quv reja tuzuvchi shaxs, bolalarning rivojlanishlarini yaqindan kuzatib borishi, bolalarning ehtiyojlarinin hisobga olgan holda darslarni rejalashtirishi kerak bo‘ladi. Albatta shundagina to‘liq inkluziv ta’limda muvaffaqiyatga erishish mumkin bo‘ladi. Sinf xonadagi hamda uy uchun beriladigan vazifalarning, barcha bolalar bajara olishini hisobga olish muhim, masalan vazifaga ko‘ra qandaydir jismoniy mashq

bajarilishi kerak bo‘lsa, bu mashg‘ulotni bajara olmaydigan(nogironligi bor) bola uchun alternativ boshqa vazifani ham belgilab o‘tish kerak bo‘ladi.

2. Qisman inkluziya

Ikkinchi turi esa qisman inlkuziyadir. Qisman inkluziya ham qaysidir ma’noda to‘liq inkluziyaga o‘xshashdir, unda ham bolalar sinf xonalarda sog‘lom bolalar bilan birgalikda ta’lim olishadi. Farqli jihat shundaki, qisman inkluziyada bolalar ham sinf xonalarda o‘qituvchidan ham maxsus pedagoglardan ta’lim olishadi. Darsdan tashqari vaqtarda ularga qo‘srimcha maxsus pedagoglar darslari qo‘yib beriladi. Qisman inkluziyani, to‘liq inkluziya tatbiq qilishda qiyinchiliklarga duch kelganda qo‘lash mumkin. Inkluziv ta’limni joriy qilishda eng katta ahamiyatli joyi bu boshqa o‘quvchilarining ehtiyojlarini chetlab o‘tmaslikdir. Nogironligi bor shaxsning ijtimoiy va aqliy rivojlanishiga yordam beram degan maqsadda, sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini chetlab o‘tib ularning rivojlanishlarini ortga suradigan harakat qilishdan ehtiyyot bo‘lish zarur.

3. Umumiy inkluziya

Inkluziv ta’limning uchinchi turi esa bu umumiy inkluziv ta’limdir. Umumiy inkluziyada, umumiy maktablarda maxsus sinflar tayyorlab, maxsus ehtiyoji bor bolalarni qabul qilib, maxsus pedagoglar tomonidan o‘qitilinishi nazarda tutiladi. Bunda bola tanafusda, ovqatlanish soatlarida, boshqa bolalar bilan birgalikda faoliyat olib bora oladilar, ammo darslarni maxsus pedagoglar tomonidan rivojlanishlariga ko‘ra qabul qiladilar. Bu jarayonda, bolalar yaqindan kuzatilinib rivojlanish anketasi kuzatilinib boriladi. Rivojlanishda ilgari bolalarni, qisman inkluziya yoki to‘liq inkluziya sinflariga o‘tkazishlari mumkin bo‘ladi. Albatta bu jarayoni birdaniga amalga oshirib bo‘lmaydi, asta sekinlik bilan, haftada bir necha kun yoki ba’zi darslar uchun sinflarga qo‘shilishga imkoniyat yaratish mumkin.

Jahondagi aksariyat ta’lim muassasalari shu turlarga asoslangan holda o‘z faoliyatlarini olib borishmoqda.

MUHOKAMA

Presidentimizning o‘qituvchi va murabiylar kuni munosabati bilan 2020 - yil 30 - sentyabirdagi nutqidan kichik lavha keltirishni lozim topdik, “har qanday xalqning ma’naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo‘lgan e’tibor bilan ham belgilanadi” jahon tajribalarini inobatga olgan holda, bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga, e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Zero, 2023 - yil 1 - iyuldagagi “Ahолига сифатли ижтимоий хизмат ва юрдам ко‘рсатиш hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar to‘g‘risidagi” Prezident farmoniga muvofiq tashkil etilgan, “Ижтимоий himoya milliy agentligi” nafaqat bolalarni balkim, kattalarning ham ijtimoiylashuv muammolari bilan shug‘ulanib kelmoqda. Agentlik faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarining 1 - bandida Nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashitirish yo‘nalishida, barcha turdagи imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiylashuv jarayonlarini yo‘lga qo‘yish uchun kerakli chora tadbirlar olib borilmoqda.

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim tadbiq etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiyalyotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

XULOSA

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rib turganimzdek, nafaqat yurtimizda balki, butun dunyoda, imkoniyati cheklangan bolalarni, jamiyatga qo‘shish uchun ilg‘or chora tadbirlar olib borilmoqda. Yurtimizda inkluziv ta’limni yanada rivojlantirish va yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish maqsadida, bir qancha chet davlatlari bilan, xususan Amerika Qo‘shma Shatatlari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Ijtimoiylashuv muammolalarini hal qilish eng avvalo, oilani jamiyatga qo‘shish bilan boshlanadi. Oilani, ota-onasi yoki vasiy insoni ta’lim tizimiga e’tiborini qarata olish, ta’limining ahamiyati to‘g‘ri tushuntira oilish, eng muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5679836>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/09/education-law/>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/22/un-human-rights/>
4. Salamanca statement <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000098427>
5. Education of All <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000178013>
6. Tashxis markazi; inkluziv bo'lim, vazifalari <http://www.rppm.uz/>